

## IQTISODIY FANLARNI O`QITISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI

**Muzaffarxonov Saida'loxon Akmalxon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakultetining 2-bosqich talabasi

### ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar: Kredit modul, metodologiya, iqtisodiy ta'lif, iqtisodiy bilimlar, amaliy ko`nikmalar, iqtisod fanlarini o'qitish, keys-stadiy, metod, adekvat baholash.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada bevosita mamlakat boshqaruvi tizimida beqiyoz o`rniga ega bo`lgan iqtisodiyotni qay tartibda o`rgatish uslubiyatlari yoritib o`tilgan, hamda iqtisodiy fanlarni o`rganish zarurati va iqtisodiy fanlarni o`qitishda zamonaviy metod va uslublardan foydalanish samaradorligi haqida so`z boradi. Shuningdek, kadrlar tayyorlashning ilmiy-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotning real sektori talablari ta'sirida shakllangan zamonaviy usullari tavsiflangan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti soniyalar sayin rivojlanib borayotgan bir pallada iqtisodiy fanlarni o`qitish bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bejizga mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ta`lim sifatini oshirish asosiy tamoyil sifatida qo`llab kelinayotgani yo`q. Mamlakatimizda iqtisodiy fanlarni o`qitish jarayonlari yangi bosqichga ko`tarilmoqda. Sifatli ta`lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, talabalarda iqtisodiy faoliyat hamda tadbirkorlikga oid bilim ko`nikmalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga katta e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning odil iqtisodiy qarashlari hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda iqtisodiy-ijtimoiy siyosat yuritishlari orqali **“2022-2026 yillarga mo`ljanlangan Yangi O`zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”** ishlab chiqildi. Maskur strategiya vatanimizning porloq kelajagini o`z qo`limiz bilan yaratishga yo`l ko`rsatuvchi reja - maqsadlar jamlangan hamda eng asosiysi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hujjat desak mubolag`a bo`lmaydi. Strategiyamiz yettita ustuvor yo`nalish hamda yuzta maqsadni o`z ichiga qamrab oladi. Strategiyamizda alohida urg`u berilgan yetti yo`nalishning to`rtinchisi tarmog`ida **“Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish hamda inson kapitalini oshirish”**ga katta e`tibor qaratilgan. Ushbu dasturga muvofiq mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta`limga e`tibor berish hamda uni jahon standartlariga moslashtirish kabi bir qancha vazifalarni ko`ndalang o`rtaga tashladi. Hususan 46- maqsadimizda **“Oliy ta`lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta`lim sifatini oshirish”**ga alohida urg`u berib o`tilgan. Ta`lim sifatini oshirish deyar ekanmiz nafaqat darslik va adabiyotlarimizni balki ta`lim berish metodikasini ham takomillashtirish joisdir. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida 210 ta oliyoh faoliyat yuritmoqda. O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-soni O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to`g`risidagi Farmonida “Inson kapitalining- mehnat bozori va mamlakatda talabalarning raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish” chora tadbirlarida muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa talabalarning iqtisodiy faoliyat yuzasidan yanada bilim saviyasini oshirish, iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko`nikmalarini samarali rivojlantirishni taqazo etadi. Iqtisodiy fanlarni o`qitish maktab talimidan to oliyoh talimigacha olib boriladi. Umumiy o`rtta ta`lim maktablarida “Iqtisodiy bilim asoslari” hamda “Tadbirkorlik asoslari” fanlarini o`qitishning asosiy maqsadi o`quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to`g`ri qaror qabul qilishga hamda o`quvchilarga tadbirkorlik faoliyati va tushunchasining shakllanishi, evolutsiyasi, mohiyati va mazmunini, tadbirkorlikni tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo`llab -quvvatlash to`g`risida bilim berishdan iborat.

Oliy ta`limda iqtisodiy fanlarni o`qitish samaradorligi ko`p jihatdan muayyan o`quv fanini o`qitishni nazarda tutuvchi fanni o`qitish metodikasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta`lim sifatini oshirish uchun umumiy o`qitish “Kredit modul” tizimidan foydalanmoqdamiz. Bu ta`lim sifatini oshirishning ilk bosqichi va nafaqat tizimnigina balki iqtisodiy fanlarni o`qitish uslublarini ham yanada rivojlantirish orqali ko`zlagan maqsadimiz tomon tobora tez yaqinlashib boramiz. Zamonaviy ta`lim sharoitida iqtisod fanlari sohasida metodologiyaning roli va ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Iqtisodiy ta`lim ijtimoiy rivojlanishdagi o`zgarishlarga javob beradi. Shuning uchun iqtisod va boshqa iqtisodiy fanlarni o`qitish metodikasini takomillashtirish muammosi juda dolzarb bo`lib qoladi. Iqtisodiyot mohiyati jihatidan nima ishlab chiqarish, qanday va kim uchun degan savollarga javob beradi. Talabalar kelajakda qanday mutaxassis bo`lishlari, shu kasbga kasbga ega bo`lishlari haqida aniq tasavvurga ega bo`lishlari kerak chunki o`z mutaxassisligini yaxshi bilgan talaba o`z ishini mukammal qila oladi. Mamlakatimizda ta`limning an`anaviy usullari bilan bir qatorda ma`ruza, seminar, talabalarning mustaqil ishi kabi noan`anaviy usullar ham keng qo`llaniladi. Ularning mohiyati o`quv jarayonini muloqot tarzida tashkil etishdan iborat bo`lib, bu o`quvchilarga o`z fikrlarini ifoda etish, fikirlari ustida munozaralar olib borish, yangi g`oyalarni shakillantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil modellashtirish hamda ularni hal etishning samarali usullarini topishga yordam beradi. Bunday usullar ta`lim darajasini oshirishga, o`quvchilarni rivojlantirishga, ularning kelajakdagagi kasbiy faoliyatida qo`llaniladigan ko`nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi.

Hozirgi kunda ana`naviy metodlarga muqobil ravishda “Case study” (amaliy holatlarni o`qitish) metodi qo`llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bu metod bo`yicha o`rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va hulosalar yeg`indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta`lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Hozirda g`arb mamlakatlarida keyislardan foydalanish o`quv rejasining 25%ni tashkil qiladi. Keys-stadiy metodi orqali iqtisodiy ta`lim sifatini oshirish g`arb mamlakatlarida yuqori samaradorlikga erishishning asosi hisoblanadi.

#### **Keys stadiy metodini iqtisodiy oliy o`quv yurtining ta`lim amaliyotiga keng tadbiq etishning dolzarbliji;**

- Mamlakatdagi iqtisodiy ta`limning umumiy yo`nalishi uning nafaqat ta`lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakillantirishda balki shu bilan birga tinglovchilarda ham fikirlash qobiliyati, nazariy bilimlarini amalda qo`llashga tayyorlik va bunga qobilikni rivojlantirish bilan bog`liq
- Tinglovchilarni keyslarni ishlab chiqish texnologiyasini o`zlashtirishi keyisda taqdim qilinadigan amaliy muammoliy vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo`lib ularni

optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakillantiradi.

- Bozor iqtisodiyotining nostandart vaziyatlarida bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobilyatini egallagan mutaxassislarga muhtoj.
- Juhon tajribasi shuni ko'rsatadiki keys- stadiy tinglovchilarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish ularni haqiyqiy profesionallar sifatida yetishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

#### **Keys-stadiy quydagicha shaxsiy sifatlarni shakillantirishga ta'sir ko'rsatadi:**

- Mavhum sharoitlarda vaziyatni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarni toppish qobilyati
- Bir tizimli fikirlash, mulohazakorlik bozor vaziyatidagi parometorlar va o'zaro aloqalarni tushunish
- Mustaqillik va tashabbuskorlik o'zgarishlarga tayyorlik va moslashuvchanlik
- Amaliy yo'nalganlik axborotlar bilan ishlash mahorati
- Komunikativlik, empotiya
- Muammoliy va mantiqiy fikirlash
- Konstruktivlik

Demak keys-stadiy interfaol metod bo'lgani uchun tinglovchilar tomonidan unga nisbatan ijobiy munosabat bo`lishiga erishiladi va dars jarayonida berilgan axborotni tez va hayotiy tarizda o`zlashtirishi uchun qulay qo'llanma hisoblanadi.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki har bir fan yuzasidan ma'lumotlar daqiqalar sayin ko`payib bormoqda. Xususan bugungi kundagi dolzarb iqtisodiy masalalar hamda ularning yechimlarini bo'lg'usi yosh mutaxassislarga mukammal o'rgatish uchun yuqorida ochiqlab o'tilgan keys-stadiy kabi metodlardan foydalanish tezkor samara beradi. Mamlakatim taraqqiyotnong ulkan cho'qqilarini zabit etishida asosiy ro`lni mutaxassislarimizning bilim malakalariga tayanish hisoblanadi. Bu esa o`z o`rnida iqtisodiy ta'lif berishni yanada takommillashtirish kerakligiga yana bir isbot sifatida qo'llaniladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro`yhati;**

1. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo'llanilishi. In International scientific and practical conference "the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).
2. Тешабаева, О. Н., & Шерматова, Х. М. (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. Scientific progress, 3(1), 44-51.
3. Nematova Sh.E., & Shermatova X.M. (2023). Raqamli iqtisodiyot va ta'lif texnologiyalarini dars jarayonlarida qo'llash mexanizmlari. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lif – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollar, 404-408.
4. Tursunali o'g'li X. E. et al. Markaziy osiyoda migratsiya siyosati va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida yuqori malakali ishchi kuchini o'zbekistonga jalb etish chora tadbirleri //research and education. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 341-348.
5. Tursunali o'g'li, Xamidov Elyor. "Markaziy osiyoda migratsiya siyosati va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik sharoitida yuqori malakali ishchi kuchini O'zbekistonga jalb etish chora tadbirleri." research and education 1.2 (2022): 341-348.
6. Tursunali o'g'li, X. E. (2022). Markaziy Osiyoda migratsiya siyosati va ijtimoiy, iqtisodiy va

siyosiy beqarorlik sharoitida yuqori malakali ishchi kuchini O‘zbekistonga jalb etish chora tadbirlari. research and education, 1(2), 341-348.

7. Umarova U. About the organization of distance education in universities of Uzbekistan and pakistan // Центр научных публикаций (BuxDU. uz). – 2022. – Т. 25. – №. 25.
8. Umarova, Umida. "About the organization of distance education in universities of uzbekistan and pakistan." Центр научных публикаций (BuxDU. uz) 25.25 (2022).
9. Umarova, U. (2022). About the organization of distance education in universities of uzbekistan and Pakistan. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 25(25).
10. Sobirov E. The methodological issues of ecological education at school geography classes // Academicia: An international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 1338-1342.
11. Sobirov, Elyor. "The methodological issues of ecological education at school geography classes." Academicia: An International multidisciplinary research journal 11.1 (2021): 1338-1342.
12. Sobirov, E. (2021). The methodological issues of ecological education at school geography classes. Academicia: An international multidisciplinary research journal, 11(1), 1338-1342.